KICHIK BIZNESNI MOLIYALASHTIRISHNING OSIYO DAVLATLARI TAJRIBALARI: TAHLILY YONDASHUV	953
<i>Annaklichev Saxi Saparmuxamedovich</i>	
КИНЕТИЧЕСКАЯ АРХИТЕКТУРА НА ПРИМЕРЕ ДИНАМИЧЕСКИХ ФАСАДОВ	958
<i>Хаитов Суннатжон Истамович</i>	
TIJORAT BANKLARIDA MARKETING FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH VA UNING AMALIY IMKONIYATLARI.....	963
<i>Ibragimova Shahlo Alimbayevna</i>	



TIJORAT BANKLARIDA MARKETING FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH VA UNING AMALIY IMKONIYATLARI

Ibragimova Shahlo Alimbayevna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

ORCID: 0009-0004-2075-5555

E-mail: sh.ibragimova@tsue.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada tijorat banklarida marketing faoliyatini takomillashtirish masalalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida bank marketingining zamonaviy yo'nalishlari, mijozlarga yo'naltirilgan marketing strategiyalari hamda raqamli marketing vositalaridan samarali foydalanish imkoniyatlari ochib berilgan. Shuningdek, marketing faoliyatini rivojlantirish orqali tijorat banklarining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan amaliy taklif va xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banki, bank marketingi, marketing strategiyalari, raqobatbardoshlik, mijozlar, raqamli marketing.

Abstract. This article examines the issues of improving marketing activities in commercial banks from both theoretical and practical perspectives. The study analyzes modern trends in bank marketing, customer-oriented strategies, and the effective use of digital marketing tools. In addition, practical recommendations aimed at increasing the competitiveness of commercial banks through the development of marketing activities are proposed.

Keywords: commercial bank, bank marketing, marketing strategies, competitiveness, customers, digital marketing.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования маркетинговой деятельности в коммерческих банках с научно-теоретической и практической точек зрения. В рамках исследования проанализированы современные направления банковского маркетинга, клиентоориентированные маркетинговые стратегии, а также возможности эффективного использования инструментов цифрового маркетинга. Кроме того, разработаны практические рекомендации, направленные на повышение конкурентоспособности коммерческих банков за счёт развития маркетинговой деятельности.

Ключевые слова: коммерческий банк, банковский маркетинг, маркетинговые стратегии, конкурентоспособность, клиенты, цифровой маркетинг.

KIRISH

Jahon amaliyotida bank xizmatlari sohasida iste'molchilar bilan munosabatlarni boshqarish hamda mijozlar bilan ishlash bo'yicha yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarb muammolardan biriga aylangan. Jahon moliya bozoriga kirib kelayotgan yangi startaplar va nobank institutlarning soni ortib borishi an'anaviy bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilotlar uchun yangi mijozlarni jalb qilish va mavjud mijozlarni saqlab qolishga qaratilgan samarali marketing strategiyalarini ishlab chiqishni yanada muhimlashtirmoqda. Mazkur holatlar tijorat banklarida marketing faoliyatini takomillashtirish va ularning raqobatbardoshligini oshirishda mijozga yo'naltirilgan marketing strategiyalarini shakllantirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borishni talab etadi.

O'zbekistonda zamonaviy bank xizmatlarini rivojlantirish asosida tijorat banklarining raqobatbardoshligini oshirish va bank xizmatlarining yangi turlarini joriy etish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bank tizimini isloh qilish jarayonida banklarning barqarorligi va likvidligini ta'minlashning asosiy sharti sifatida raqobatli bozor sharoitida mijozga yo'naltirilgan marketing strategiyalarini ishlab chiqish zarur hisoblanadi. Tijorat banklarining raqobatbardoshligini oshirish, mijozlarning banklarga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga qaratilgan marketing tadqiqotlarini olib borish, mavjud muammolar va imkoniyatlarning yetarli darajada o'rganilmaganligi banklarning yuqori raqobatli bozor sharoitida mijozlar ehtiyojlarini to'liq qondirish hamda sof



raqobat muhitida uzoq muddatli daromadlilikni ta'minlashga xizmat qiluvchi strategik yo'nalishlarni belgilashni taqozo etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Tijorat banklarida marketing faoliyatini takomillashtirish va ularning raqobatbardoshligini oshirishda marketing strategiyalaridan foydalanish masalalari bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarning ayrim nazariy va amaliy jihatlari xorijlik iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida keng yoritilgan. Xususan, J.J. Lamben marketingni strategik boshqarish, bozorni segmentatsiyalash va mijozga yo'naltirilgan yondashuvlarning banklar raqobatbardoshligiga ta'sirini asoslab bergan [1]. F. Kotler marketing strategiyalarini ishlab chiqishda mijoz ehtiyojlarini aniqlash, qiymat yaratish va uzoq muddatli munosabatlarni shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratgan bo'lsa, M. Porter tomonidan ishlab chiqilgan raqobat strategiyalari va raqobat ustunliklari konsepsiyasi bank sektorida marketing faoliyatini strategik rejalashtirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi [2]. Shuningdek, E. Dixtel, Mahmud, J. Al Samiday hamda T. Amblerning ilmiy izlanishlarida marketing samaradorligi, xizmatlar marketingi va brend boshqaruvi masalalari chuqur tahlil qilingan [3].

Respublikamizda bank xizmatlari bozorida marketing faoliyatini takomillashtirish va mijozlarga yo'naltirilgan marketing strategiyalarini shakllantirish masalalari mahalliy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Jumladan, A. Bekmurodov, M. Boltaboyev, J. Jalolov, M. Qosimova, Sh. Ergashxodjayeva, U. Sharifxodjayev, O. Ortiqov, Z. Mustafayev hamda D. Allayorova tijorat banklarida marketing faoliyatining samaradorligini oshirish yo'llarini tahlil qilgan [4]. B. Mirzamaydinov bank xizmatlarida marketing samaradorligini baholash masalalarini yoritgan bo'lsa [5], G. Bekmurodova tijorat banklari raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion marketing konsepsiyalarini takomillashtirish masalalariga e'tibor qaratgan [6]. N.A. Karabayev tijorat banklari faoliyatini reyting tizimi asosida baholash orqali ularning raqobatbardoshligini oshirish yo'llarini asoslab bergan [7]. M.B. Muminova bank aktiv operatsiyalarini boshqarish strategiyasini takomillashtirish masalalarini tadqiq qilgan [8], M. Abdurahmanova esa bank xizmatlari bozorida marketing faoliyatini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritgan [9].

Shu bilan birga, sanab o'tilgan olimlarning iqtisodiyot faniga qo'shgan salmoqli hissasiga qaramay, ularning tadqiqotlarida tijorat banklari raqobatbardoshligini oshirishda raqamli va innovatsion marketing texnologiyalaridan foydalanish, mijozlarga yangi bank xizmatlarini taklif etishda zamonaviy marketing yondashuvlarini qo'llash, bank xizmatlari ko'rsatishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish hamda yangi xizmat turlarini kengaytirishga qaratilgan marketing strategiyalarini ishlab chiqishning ayrim o'ziga xos jihatlari yetarli darajada yoritilmagan. Shu sababli, tijorat banklarida marketing faoliyatini takomillashtirish va mijozga yo'naltirilgan marketing strategiyalarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish dolzarb vazifa hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda tijorat banklarida marketing faoliyatini takomillashtirish va mijozga yo'naltirilgan marketing strategiyalarining raqobatbardoshlikka ta'sirini aniqlash maqsadida kompleks ilmiy-uslubiy yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik usullar uyg'unlashtirilib, bank marketingi sohasidagi zamonaviy tendensiyalar tizimli tahlil qilindi.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini bank marketingi, xizmatlar marketingi, innovatsion rivojlanish va raqobatbardoshlik nazariyalariga oid xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlari tashkil etadi. Xususan, marketing strategiyalari, mijozlarga yo'naltirilgan yondashuvlar, raqamli va innovatsion bank xizmatlari bo'yicha ilmiy adabiyotlar chuqur o'rganildi va umumlashtirildi.

Tadqiqotda quyidagi ilmiy usullardan foydalanildi:

- tizimli tahlil usuli — tijorat banklarida marketing faoliyatining tarkibiy elementlarini aniqlash va ularning o'zaro bog'liqligini o'rganish uchun;

- taqqoslash usuli — rivojlangan mamlakatlar va O'zbekiston tijorat banklari amaliyotida qo'llanilayotgan marketing strategiyalarini solishtirish maqsadida;

- induksiya va deduksiya usullari — umumiy nazariy xulosalar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun;

- mantiqiy tahlil va sintez — bank marketingida innovatsion yondashuvlarning samaradorligini baholashda;

- statistik va iqtisodiy tahlil usullari — bank xizmatlari bozorining rivojlanish tendensiyalarini aniqlashda.

Empirik tahlil jarayonida rivojlangan mamlakatlar (AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Singapur, Avstraliya va boshqalar) tijorat banklarining ochiq statistik ma'lumotlari, xalqaro moliyaviy tashkilotlar hisobotlari hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklarining rasmiy axborotlari asos qilib olindi. Shuningdek, bank xizmatlarining turlari, ularning diversifikatsiyasi va raqamli texnologiyalar asosida joriy etilish darajasi bo'yicha ma'lumotlar tahlil qilindi.



Tadqiqot natijalarini asoslashda jadvallar, guruhlash va grafik tahlil elementlaridan foydalanildi. Olingan ilmiy xulosalar tijorat banklarida marketing faoliyatini takomillashtirish, mijozga yo'naltirilgan marketing strategiyalarini ishlab chiqish hamda banklarning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bank innovatsiyalaridan foydalanish korxonalar rivojlanishining yangi yo'nalishlarini ochish qobiliyatini oshirishga qaratilgan. Ularning asosiy maqsadi — bank xizmatlari bozorida tobora kuchayib borayotgan raqobatni hisobga olgan holda yangi mijozlarni jalb qilish va mavjud mijozlarni saqlab qolishdir. Bu jarayon asosan taqdim etilayotgan xizmatlar doirasini kengaytirish hamda ularni joriy etish texnologiyalarini takomillashtirishda ifodalanadi.

Mavjud resurslar cheklangan sharoitda innovatsion faoliyat tijorat banklarining ajralmas qismi bo'lgan milliy iqtisodiyotning umumiy raqobatbardoshligini ta'minlovchi eng muhim vositaga aylanib bormoqda. Ushbu holatlar jahon bank biznesi rivojlangan mamlakatlar amaliyotida o'z isbotini topgan. Faoliyat samaradorligini oshirish va tijorat banklarining barqaror rivojlanishini ta'minlashda innovatsiyalar alohida ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda bank bozorida kuzatilayotgan tobora kuchayib borayotgan ichki raqobat sharoitida tijorat banklari uchun yangi va mavjud bank mahsulotlarini takomillashtirishga xizmat qiluvchi qulay vositalarning mavjudligi nihoyatda muhimdir. Natijada banklar erishilgan raqobat pozitsiyalarini saqlab qolish va yanada mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Bank faoliyatining innovatsion xarakterini belgilovchi navbatdagi hal qiluvchi omil bozor ishtirokchilari o'rtasidagi yuqori darajadagi raqobat bo'lib, u banklarni eng yangi texnologiyalardan foydalanishga undaydi. Bir tomondan, innovatsiyalarni amalga oshirish dastlab moliyaviy sarmoyalarni talab qilsa-da, odatda jarayonlarni optimallashtirishga olib keladi va uzoq muddatda tejamkorlikni ta'minlaydi. Boshqa tomondan, jozibador va zamonaviy mahsulot turlarini joriy etish orqali mijozlarni saqlab qolish darajasi oshadi hamda yangi mijozlarni jalb qilish imkoniyati yuzaga keladi. Aynan mijozlar bazasining kengligi yuqori raqobat bosimi sharoitida banklarning rentabelligini belgilovchi hal qiluvchi omillardan biriga aylangan.

Bundan tashqari, banklarning raqobat muhitini tahlil qilishda bozorga tobora samarali kirib kelayotgan startaplar va boshqa texnologik kompaniyalarni ham inobatga olish muhimdir. Bank sektoridan tashqaridagi moliyaviy xizmatlar uchun yaratilgan innovatsion muhit banklarning texnologiyalar bilan tajriba o'tkazishga bo'lgan tayyorligini sezilarli darajada rag'batlantiradi. Masalan, Avstraliya va Singapurda FinTech kompaniyalarining rivojlanishi uchun yaratilgan qulay sharoit banklarning innovatsion faolligiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Ushbu bozorlarda bank sektoridan tashqaridagi moliyaviy yangiliklarni qo'llab-quvvatlovchi tartibga soluvchi mexanizmlar mavjud bo'lib, xususan, tartibga solinadigan "qum muhiti" (regulatory sandbox) konsepsiyasi nazorat ostida maxsus muhit yaratish orqali startap tashkilotlarga yangi yechimlarni sinovdan o'tkazish va ularni amaliyotda tekshirish imkonini beradi.

An'anaviy banklar bozor mexanizmlari va yangi sharoitlarga moslashish zaruratini bir necha bor anglab yetgan. Shu sababli bugungi kunda ular innovatsiyalarni nafaqat ichki resurslar hisobiga faol joriy etmoqda, balki tashqi manbalardan ham foydalanib, texnologik kompaniyalar va startaplar bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yimoqda. Bundan tashqari, banklar moliyaviy startaplarning rivojlanishini rag'batlantirish maqsadida maxsus investitsiya fondlarini tashkil etish, tezlashtirish (accelerator) va inkubatsiya dasturlarini yo'lga qo'yish bo'yicha ko'plab tashabbuslarni amalga oshirmoqda. Ushbu harakatlar banklarning nafaqat tartibga solishdagi o'zgarishlarga, balki yangi bozor talablariga moslashish qobiliyatini ham yaqqol namoyon etadi. Bunga Polshada yangi yechimlarni sinovdan o'tkazishdan cho'chimaydigan va o'z tajribasi asosida ichki startap bozorini shakllantirishda faol rol o'ynayotgan banklar misol bo'la oladi.

Biroq bank faoliyatida innovatsiyalarni rivojlantirishning muhim shartlaridan biri huquqiy-me'yoriy bazadir. Bank sohasida yangi texnologiyalarni tartibga solish omillari ko'p qirrali bo'lib, avvalo xavfsizlik darajasining yetarli emasligi sababli ayrim texnologiyalardan foydalanishga tizimli cheklovlar mavjud. Bunga dunyoning ayrim hududlarida banklarga bulutli texnologiyalarga asoslangan yechimlardan foydalanishga qo'yilgan cheklovlar misol bo'la oladi. Shu bilan birga, bank innovatsiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi tartibga solish choralarini ham uchratish mumkin. Masalan, Buyuk Britaniyada nafaqat moliyaviy startaplarning rivojlanishi, balki neo-banklar yoki challenger banklar (masalan, Starling Bank, Atom Bank va Monzo) faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi qulay ekotizim shakllantirilgan.

Shubhasiz, huquqiy tartibga solish bank bozoridagi innovatsion rivojlanishning eng zaif jihatlaridan biri hisoblanadi, chunki uzoq davom etuvchi qonunchilik jarayonlari texnologiyalar sohasidagi tezkor va dinamik o'zgarishlarga mos kelmaydi. Shu sababli texnologik ishlanmalardan ortda qolayotgan normativ-huquqiy hujjatlar banklar faoliyatidagi eng muhim muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Xorijiy olimlarning ilmiy adabiyotlarini tahlil qilish natijalari rivojlangan mamlakatlar tijorat banklari amaliyotida zamonaviy bank xizmatlari va mahsulotlari keng rivojlanib borayotganini aniqlash imkonini berdi (1-jadval).

1-jadval. Jahon mamlakatlari tijorat banklarida ko'rsatiladigan zamonaviy bank xizmatlari tasnifi

№	Zamonaviy bank xizmatlari	Tavsifi
1	Privat-banking (private banking)	Banklar tomonidan VIP mijozlarga taqdim etiladigan moliyaviy va nomoliyaviy bank xizmatlari majmuasi
2	Internet-banking tizimi	Internet tarmog'i orqali veb-brauzer yordamida amalga oshiriladigan masofaviy bank xizmati turi
3	Bank–mijoz tizimi (PC banking, home banking, telephone banking)	Banklarda mijoz bilan interaktiv va raqamli texnologiyalar asosida amalga oshiriladigan maxsus ishlash usuli bo'lib, bunda mijoz bank bilan doimiy aloqani bank bo'limiga tashrif buyurmasdan amalga oshirishi mumkin
4	Mobil-banking tizimlari (SMS-banking, STK-banking, Java-banking, WAP-banking)	Mijoz tomonidan bank operatsiyalarini mobil aloqa vositalari orqali masofadan turib amalga oshirish imkonini beruvchi xizmatlar

Yuqoridagilar bilan bir qatorda AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya, Kanada, Yaponiya va boshqa rivojlangan mamlakatlarda metall tangalar muomalasi uchun "Penny Arcade" bank avtomatik qurilmalari xizmatlari, pochta bo'limlarining moliyaviy va bank xizmatlari, shuningdek moliyaviy kompaniyalar (uyalar) xizmatlari keng yo'lga qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida hozirda privat-banking amaliyotidan foydalanish bo'yicha yetarli tajribalar mavjud emas. Biroq ushbu tizim xorijiy mamlakatlar banklarida keng qo'llanilayotgan samarali bank xizmatlari turlaridan biri hisoblanadi.

Xorijiy olimlarning aksariyat ilmiy manbalariga e'tibor qaratilsa, yangi bank xizmatlarini joriy etishda asosiy e'tibor masofadan xizmat ko'rsatish texnologiyalarining yangi shakllarini tatbiq etishga qaratilgan tadqiqotlarga qaratilgan. Jumladan, quyidagi xizmatlar keng tarqalgan: online banking, remote banking, direct banking, home banking, Internet-banking, PC-banking, phone-banking, mobile banking, WAP-banking, SMS-banking, GSM-banking.

Bugungi kunda jahon bank tizimida "Bank–mijoz" dasturlari, xalqaro pul o'tkazmalari tizimlari, SWIFT to'lov tizimi, bank plastik kartalari, bankomatlar, terminallar va bank faoliyatini yuritishda qo'llaniladigan boshqa ko'plab texnologiyalar keng foydalanilmoqda.

2-jadval. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida ko'rsatiladigan bank xizmatlari

Bank xizmatlari	Xizmatlarning qisqacha tavsifi
Internet-banking	Mijoz bank bilan o'zaro aloqaga kirishish uchun standart internet-brauzerdan foydalanadi, bu esa internet tarmog'iga ulangan istalgan kompyuter orqali tizimdan foydalanish imkonini beradi
Mobile-banking	Bank kartalari yoki hisobvaraqlarni smartfon va kommunikatorlar orqali onlayn boshqarish xizmati
Phone-banking	Bank hisobvaraqlari va bank kartalariga telefon orqali kirish xizmati
Video-banking	Bank xodimi va mijoz o'rtasidagi videokonferensiya asosidagi interaktiv xizmat
Web-banking	Elektron raqamli imzosiz, soddalashtirilgan internet-banking turi bo'lib, bank kartalari va hisobvaraqlariga veb-brauzer orqali kirish imkonini beradi
WAP-banking	Bank kartalari va hisobvaraqlariga mobil aloqa vositasidagi WAP texnologiyasi orqali kirish imkonini beruvchi xizmat
SMS-banking	SMS xabarlar yordamida bank kartalari va hisobvaraqlarini nazorat qilish xizmati
PC-banking	Oflayn rejimda bank kartalari va hisobvaraqlarini boshqarish xizmati
"Bank–mijoz" dasturi	Bank va uning mijozlari o'rtasidagi masofaviy xizmat ko'rsatishni avtomatlashtiruvchi tizim
SWIFT to'lov tizimi va boshqalar	Xalqaro banklararo telekommunikatsiyalar jamiyati orqali banklar o'rtasida moliyaviy axborot almashish tizimi

Manba: muallif tomonidan Ilhomova E.S. (2017) ma'lumotlari asosida tuzilgan.

2-jadval ma'lumotlariga ko'ra, interaktiv texnologiyalar asosida ko'rsatiladigan bank xizmatlari xilma-xil bo'lib, jahon amaliyotida deyarli barchasidan samarali foydalanilmoqda. Tijorat banklari tomonidan masofaviy xizmat ko'rsatish tizimlarining eng asosiylari "Bank–mijoz" dasturi, internet-banking, SMS-banking va mobil-banking tizimlari hisoblanadi.



Zamonaviy banklar murakkab moliyaviy institutlar sifatida moliyaviy bozor va umuman iqtisodiyotning turli sohalarida faoliyat yuritadi. Shu sababli banklarda yangi xizmatlarni joriy etish va xizmatlar diversifikatsiyasi banklar faoliyatining eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Yangi bank mahsulotlari va xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish jahon ilmiy tadqiqotlarida ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

Bank xizmatlarini keng miqyosda diversifikatsiya qilish banklarga mavjud mijozlarni saqlab qolish bilan bir qatorda, yangi texnologiyalar hisobiga ularning sonini oshirish imkonini beradi. Haqiqatan ham, banklarni diversifikatsiyaga undovchi bir qator omillar mavjud bo'lib, ularning asosiylaridan biri an'anaviy bank sohasida raqobatning kuchayishi natijasida foiz marjasining pasayib borishidir. Yana bir muhim omil risklarni kamaytirish zaruratidir. Keng diversifikatsiyalashgan moliyaviy tuzilmalar investitsiyalarni turli (shu jumladan nomoliyaviy) tarmoqlarga taqsimlash orqali xavflarni kamaytirish hamda murakkab risklarni boshqarish tizimlarini joriy etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida keltirilgan tahlillar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, rivojlangan mamlakatlar tijorat banklari amaliyotida moliyaviy hamda boshqa turdagi bank xizmatlari bank faoliyatining asosiy va birlamchi yo'nalishini tashkil etadi. Bank mijozlarining ehtiyoj va istaklarini qondirish jarayonida yangi bank xizmatlarini yaratish, mavjud xizmatlarni takomillashtirish hamda ularni joriy etish bo'yicha innovatsion g'oyalar shakllanadi. Aynan mijozga yo'naltirilgan yondashuv bank xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi.

Internet-banking xizmatlarining rivojlanishi yetarli darajada istiqbolli yo'nalishlardan biri bo'lib, bugungi kunda aksariyat tijorat banklari internet orqali mijozlar bilan samarali hamkorlik qilish imkonini beruvchi tizimlarni joriy etmoqda. Mutaxassislarning fikriga ko'ra, bank mijozlarining asosiy qismi global internet tarmog'idan banklar bilan o'zaro aloqada bo'lish vositasi sifatida foydalanmoqda. Internet-bankingning ilk amaliy namunalari AQShda paydo bo'lgan bo'lib, 1995-yilda "Security First Network Bank" dunyodagi birinchi internet-bank sifatida tashkil etilgan.

Masofadan bank xizmatlarini ko'rsatish jarayonini tavsiflashda bir qator muhim omillarni ajratish mumkin. Biroq, ushbu omillar ichida bankning mijoz talablariga tezkor va samarali munosabat bildirish olishi eng muhim mezon hisoblanadi. Mazkur yondashuv asosida masofaviy bank xizmatlari doirasida amalga oshiriladigan operatsiyalarni ikki asosiy toifaga ajratish mumkin: oflayn (off-line) va onlayn (on-line) rejimda bajariladigan operatsiyalar.

Oflayn rejimda bajariladigan operatsiyalarga bankka farmoyishlarni an'anaviy pochta orqali qog'oz shaklida yuborish, elektron raqamli imzo yordamida elektron pochta orqali jo'natish hamda farmoyishlarni faksimil orqali uzatish kiradi. Onlayn rejimda esa mobil-banking tizimlari orqali xizmat ko'rsatish, internet-banking va "bank-mijoz" tizimlari orqali operatsiyalarni amalga oshirish, bankomatlar orqali xizmatlardan foydalanish hamda o'z-o'ziga xizmat ko'rsatuvchi bank shoxobchalari orqali bank operatsiyalarini bajarish imkoniyatlari mavjud.

Bugungi kunda xalqaro moliyaviy-iqtisodiy globallashuv jarayonlari sharoitida O'zbekiston Respublikasida ham banklarning masofadan xizmat ko'rsatishning aynan onlayn shakllari jadal rivojlanib bormoqda. Ushbu jarayon mijozlar uchun bir qator qulayliklarni ta'minlamoqda, jumladan vaqt tejalishi, ortiqcha byurokratik jarayonlarning qisqarishi va qog'ozbozlikning kamayishi kuzatilmoqda. Natijada, masofaviy bank xizmatlarining rivojlanishi tijorat banklari faoliyatining samaradorligini oshirish hamda ularning raqobatbardoshligini mustahkamlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Lambin, J.-J. (2006). Strategik marketing. Sankt-Peterburg: Nauka. <https://books.google.com/>
2. Kotler, P., Armstrong, G., Saunders, J., & Wong, V. (2008). Marketing asoslari. Sankt-Peterburg: Williams. <https://www.pearson.com/>
3. Porter, M. E. (2005). Raqobat strategiyasi: Tarmoqlar va raqobatchilarni tahlil qilish metodikasi. Moskva: Alpina Business Books. https://books.google.com/books/about/Competitive_Strategy.html
4. Ambler, T. (1999). Amaliy marketing. Sankt-Peterburg: Piter. <https://www.piter.com/>
5. Bandeira, A. A. (2024). Marketing in the banking sector: Strategies, challenges and innovations. International Seven Multidisciplinary Journal, 3(6), 1644–1655. <https://doi.org/10.56238/isevmjv3n6-013>
6. Turki, M. D., & Sabbar, M. (2023). Studying the role of banking marketing in supporting the competitive advantage of the Iraqi banks. International Journal of Professional Business Review, 8(4), 1–17. <https://doi.org/10.26668/businessreview/2023.v8i4.1342>
7. Tang, X., & Zhu, Y. (2024). Enhancing bank marketing strategies with ensemble learning: Empirical analysis. PLoS ONE, 19(1), e0294759. <https://doi.org/10.1371/journal.pone.0294759>
8. Fan, B. (2023). Research on the marketing strategy of banking and retail lending optimization based on internet and big data. SHS Web of Conferences. <https://doi.org/10.1051/shsconf/202316002018>



9. Allayorova, D. N. (2009). O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari faoliyatida marketing samaradorligi (Iqtisod fanlari nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati). Toshkent: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti. <https://tsue.uz/>
10. Mirzamaydinov, B. M. (2008). Bank xizmatida marketing samaradorligi (O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki misolida) (Iqtisod fanlari nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati). Toshkent: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti. <https://tsue.uz/>
11. Bekmurodova, G. (2018). Tijorat banklari raqobatbardoshligini oshirishning innovatsion marketing konsepsiyasini takomillashtirish (PhD dissertatsiyasi avtoreferati). Toshkent: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti. <https://tsue.uz/>
12. Karabayev, N. A. (2018). Tijorat banklari faoliyatini reyting tizimi asosida baholashni takomillashtirish (PhD dissertatsiyasi avtoreferati). Toshkent: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti. <https://tsue.uz/>
13. Muminova, M. B. (2018). Tijorat banklari aktiv operatsiyalarini boshqarish strategiyasini takomillashtirish (PhD dissertatsiyasi avtoreferati). Toshkent: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti. <https://tsue.uz/>
14. Abdurahmanova, M. M. (2010). Bank xizmatlari bozorida marketing faoliyatini rivojlantirish (Iqtisod fanlari nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati). Toshkent: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti. <https://tsue.uz/>
15. World Bank. (2024). Financial consumer protection and banking services. <https://www.worldbank.org/>
16. International Monetary Fund. (2024). Financial sector development and banking systems. <https://www.imf.org/>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100